XORAZM VILOYATI URGANCH SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - aprel 202-12-180-Q/22 Urganch shahar hokimligi

Urganch shahrida Ramazon hayiti keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha bo‘lib o‘tadigan tadbir davomida shu atrofdagi yo‘llarda transport vositalarini qatnovini vaqtinchalik harakatlanishini cheklash to‘g‘risida

Xorazm viloyati hokimining 2022-yil 28-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 apreldagi “Ramazon hayitini nishonlash haqida”gi 84-sonli bayonining ijrosi haqida”gi 239-sonli yig‘ilish bayoniga muvofiq tadbir davomida shu atrofdagi yo‘llarda transport vositalarini qatnovini vaqtinchalik harakatlanishini cheklash maqsadida

QAROR QILADI:

1. Xorazm viloyati hokimining 2022-yil 28-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 apreldagi “Ramazon hayitini nishonlash haqida”gi 84-sonli bayonining ijrosi haqida”gi 239-sonli yig‘ilish bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xorazm viloyati hokimining 2022-yil 28-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 apreldagi “Ramazon hayitini nishonlash haqida”gi 84-sonli bayonining ijrosi haqida”gi 239-sonli yig‘ilish bayonining ko‘rsatmalariga binoan Urganch shahrida joriy yil **2-may kuni** soat **05:00 dan 09:00 gacha P.Maxmud** va **A.Baxodirxon** ko‘chalari kesishmasidan-**A.Baxodirxon** va **Amudaryo** ko‘chalari kesishmasigacha, **A.Temur** va **Fayozov** ko‘chalari kesishmasidan-A.Temur ko‘chasi va H.Olimjon ko‘chalari kesishmasigacha, **Tinchlik** va **Al-Xorazmiy shox** ko‘chalari kesishmasidan-**Al-Xorazmiy** va **Alpomish** ko'chasi kesishmasigacha, **Maxtumquli** va **R.Bekniyoz** ko‘chalari kesishmasidan-**Al-Xorazmiy shox** ko‘chasigacha hamda ertalab soat **05:00 dan 15:00 gacha Jambul** va **Amudaryo** ko‘chalari kesishmasidan-**Jayxun** va **Amudaryo** ko‘chalari kesishmasigacha bo‘lgan masofada transport vositalari harakati vaqtincha cheklansin.

3. **Urganch shahar bo‘yicha IIO FMB (T.Yuldashev)ga:**

P.Maxmud va A.Baxodirxon ko‘chalari kesishmasidan-A.Baxodirxon va Amudaryo ko‘chalari kesishmasigacha, A.Temur va Fayozov ko‘chalari kesishmasidan-A.Temur ko‘chasi va H.Olimjon ko‘chalari kesishmasigacha, Tinchlik va Al-Xorazmiy shox ko‘chalari kesishmasidan-Al-Xorazmiy va Alpomish ko'chasi kesishmasigacha, Maxtumquli va R.Bekniyoz ko‘chalari kesishmasidan-Al-Xorazmiy shox ko‘chasigacha hamda ertalab soat **05:00 dan 15:00 gacha** Jambul va Amudaryo ko‘chalari kesishmasidan-Jayxun va **Amudaryo** ko‘chalari kesishmasigacha bo‘lgan masofada transport vositalarini vaqtincha cheklashni belgilangan tartibda va amaldagi qonunlar doirasida mutasaddilar bilan hal qilsin, shuningdek shu hududlarda jamoat tartibini saqlanishini ta’minlasin.

4. **Shahar “Obodonlashtirish boshqarmasi”ga:**

- tadbirlar bo‘adigan joylarni tartibga keltirsin va obodonlashtirsin.

5. Mazkur farmoyishning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosarlari **J.Eshchanov va N.Babajanov**lar zimmalariga yuklatilsin.

Urganch shahar hokimi **O.Xolboyev**